

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

FARG'ONA VILOYATI XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI
RISHTON TUMANI XALQ TA'LIMI BO'LIMI

INNOVATION EDUCATION INSTITUTIONS



Respublika miqyosidagi ilmiy-onlayn konferensiya materiallari

Rishton 2021



«Innovatsion ta'lism istiqbollari» mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-onlayn konferensiya materiallari (31-mart 2021-yil) – T.: Rishton XTB 2021.

Ilmiy-onlayn konferensiyasi materiallari to‘plamida Respublikamiz o’qituvchilari, soha mutaxasislari, ilmiy tadqiqotchilar, magistrler, talabalarning ilmiy maqolalari o‘rin olgan.

Taqrizchilar:

M.J.Saidova – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

I.S.Mirzarahimova – Farg’ona viloyati xalq ta’limi boshqarmasi Rishton tumani
XTB mudiri

Muharrir:

A.B.Vahobov – “Ustozlar uchun” respublika pedagoglar jurnali tahririyati rahbari

Tashkilotchilar:

Inobatxot Mirzaraximova – Rishton tuman XTB mudiri

Umida Barzieva – Farg’ona viloyat xalq ta’limi boshqarma metodisti

Tursunxo’ja Abduraxmonov – Rishton tumani Faxriylar kengashi Raisi

Erkinjon Abdullaev – Rishton tumani Kasaba uyushmasi raisi

Mohinur Saidova – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sharifaxon Xakimova – Farg’ona tumani 4-maktab matematika fani o’qituvchisi

Adxamjon Vahobov – “Ustozlar uchun” respublika pedagoglar jurnali rahbari





razil olamidan ehtiyot bo'lishga chaqiruvchi ushbu ogohlantiruvchi asar mazmuni Tohir Malikning „Jinoyatning uzun yo'li“ (2004) ilmiy-tahliliy risolasida davom ettirilgan.

Hozirgacha yozuvchining 20 dan ortiq qissasi chop etildi. 1971-yilda chop etilgan „Hikmat afandining o'limi“ dan keyin „Falak“ (1976), „Somon yo'li elchilar“ (1976) tahayyul, ilmiy-tahayyul qissalari bosildi. „Chorrahada qolgan odamlar“ qissasida tahayyul va detektiv xususiyatlari seziladi. „Alvido bolalik“ (1989), „Qaldirg'och“ (1987) qissalarida muhim mavzu ishlanadi. Mutaqillik yillarda Tohir Malik „So'nggi o'q“ (1990), 4 qismdan iborat „Shaytanat“ (1994–2001), „Odam ovi“ (2001), „Charxralak“, „Murdalar garirmaydilar“ (1999) qissalarini chop ettirdi. Yozuvchi 20–asrdagi hayotni, kishilar taqdirini goh tahayyul, goh izchil xolis, goh detektiv yo'sinda tasvirlaydi. U qissa janri imkoniyatlarini uzlucksiz boyitib bormoqda. 2002-yilda yozuvchining „Mehmon tuyg'ular“ o'ylari, „Jinoyatning uzun yo'li“ risolasi chop etildi. Mustaqillik yillarda eng ko'p adabiyotda kitob chop ettirgan Tohir Malikdir.

“ZARBULMASAL”DAGI BOSH SYUJET CHIZIG'I

Qodirova Saodat Abduraximovna

*Buxoro davlat universiteti, boshlang'ich
ta'lif metodikasi kafedrasi o'qituvchisi,*

Askarova Dilchiroy Amin qizi





*Maktabgacha va boshlang`ich ta'lim fakulteti
boslang`ich ta'lim yo`nalishi I kurs talabasi*

Annotatsiya: ushbu maqolada Gulxaniy ijodiga mansub bo`lgan “Zarbulmasal” asarining tarixi va o`tmishimiz ya`ni o`sha davrning muammolari masallar asosida ochib berilgan. Insonlar xarakteri hayvonlarga majoziy tarzda ko`chirilib, ular o`rtasidagi munosabat asosida o`sha davrning muhiti yaqqol ko`rinadi. Asarning mazmuni, g`oyaviy yo`nalishi, bosh sujet yo`li, tarkibi, tili, uslubiy xususiyatlari haqida ma`lum tasavvur hosil qilinadi.

Kalit so`zlar: asar, sujet, mazmun, fikr, xarakter, Qahramon, moziy, dialog

“Zarbulmasal” – murakkab sujetli asar. Uning qoliplovchi bosh sujet yo`li bor. Bosh sujetga qoliplangan yon sujet chiziqlari bor. Asarning ilmiy – tanqidiy matnini shakllantirishda sujet yo`lining mantiqiyligi va qat`iyiligiga alohida e’tibor qaratishga to`g`ri keladi. Bosh sujet yo`li roviylarning rivoyatiga asoslanib boshlanadi, qahramonlarning murodu maqsadga yetishlari bilan tugallanadi. Voqeа “ilgarigi ahdi ayyomi Nofarjomda Kaykubod otlig` podshohdin qolg`on bir eski shahristonda” yuz bergen. Boyo`g`lida Kunushbonu ismli qiz, Yapalqqushda Kulangir sulton nomli o`g`li voyaga yetgan. Yapaloqqush o`z o`g`li uchun Boyo`g`lining qizizni so`rab Ko`rQushni sovchilikka yuboradi. Boyo`g`li esa qizining qalini uchun ming buzuq chordevor talab qiladi. Amir Umarxon davrida Qo`qon xonligi obodlikka yuz tutib, buncha chor devorni topib berish imkonи bo`lmaydi. Oxiri Buxoro xonligiga qarashli vayrona yurtlarni sanab berib xayrli ishni bitkazadilar. Asarning bosh sujet yo`li ana shunda.

“Zarbulmasal” atamasi va asarning janriy xususiyatlari. “Zarbulmasal” arabcha “zarb” va masal so`zlarining qo`shiluvidan hosil bo`lgan birikmali nom bo`lib, adabiy atama sifatida “masal(maqol-matal, ibora) keltirib so`zlamоq, “o`xshashini va dalilini topib gap qilmoq” ma’nolarida ishlataladi.⁴ Forsiy va turkiy xalqlarda

⁴Hozirgi imlomizning izmi bilan “Zarbulmasal” nomi “Zar-bulmasal” va “Zarbulmasal” shakllarida ajratib va qo`shib yozilyapti. Arabcha so`z birikmasi sifatida atamaning ajratib yozilishi ma’qul edi. Biroq asarda va hozirgi tilimizda bu so`z birikmasi qo`shma so`z mavqeiga yaxlit bir ma’no anglatishga ko`chgan, bir umumiy urg`u bilan aytildi. Shunga ko`ra, uni





keyinchalik bu nom “maqol-matal”, “ibora” ma’nosida ishlatilgan. Nutq uslubini anglatish uchun qo’llangan “zarbulmasal” atamasining keyinchalik til birligini – leksik-frazeologik tushunchani anglatishga ko`chib qolgani ochiq ko`rinadi. Tarixda “Zarbulmasal” nomi bilan atalgan asarlar ko`p, ammo mazmun-mohiyatiga qarab ularni bir-birlaridan anchayin farq qiladilar. Ubayd Zokiyning 200ga yaqin forscha maqol, matalni o’z ichiga oladigan asari bo’lib “Zarbulmasal” deb atalgan. Maqol, matal, iboralarning bir tildan ikkinchi tilga tarjimasi – izohli lug`atlari bor – ular ham “Zarbulmasal”, “Zurubi amsol” nomlari bilan yuritiladi. Turk tili manbalari orasida Takazodaning “Zurubi amsoli Turkiya” kitobi, Ibrohim Shinosiyning “Zurubi amsoli Usmoniya”si, Ali Majidiy tuzgan “Zurubi amsol va istilohot” asarlari lug`at tipidagi ana shunday “zarbulmasallar”dandir.⁵ “Irsol-ul masal(maslga asoslanib tuzilgan risola)” san’ati bo`yicha yaratilgan asarlar – pandnomalar bor – ular ham “Zarbulmasal” deb ataladi. O’zbek adabiyoti tarixida Sulaymonqul Rojiy va Nozili Xo`jandiy meroslari ayni shu turdagи “zarbulmasallar” hisoblanadi.⁶

Bu o`rinda shuni alohida qayd etib o’tish kerakki, “Zarbulmasal”ning bosh sujet yo`li – boyqushlarning o`zaro qudashilik munosabatlari, ularning qiz uchun qalin evaziga minglab buzuq chordevor talab qilishi tasvirlari kichik epizodlar shaklida Gulxaniygacha bo`lgan tarixiy manbalarda ham uchraydi. Masalan, Nizomiy Ganjaviyning “Mahzun-ul asror”asari 11 maqolotida Nushirvonning ov qilib chekka bir xaroba qishloqqa borib qolgani va unda ikki Qushning g`ayritabiyy bir tarzda “suhbatlashayotgani” hikoya qilinadi. Vazirning izohiga qaraganda, qushlar qudashilik yo`lida gaplashayotgan ekan-u, biri ikkinchisidan qalin uchun shu xarobalarni o`ziga berishni talab qilar ekan. Bunga javoban ikkinchi qush “agar podshohimiz omon bo`lsalar, yuz

qo’shib yozish to`g’ridir, degan xulosaga keldik. “Zarbulmasal” ning o’zida: “bu zarbulmasallarni necha hikoyatlar arosida tartib ver” tarzida kelishi ham bunga yorqin dalildir.

⁵Zurubi amsoli Turkiya – Istanbul; 1893; Zurubi amsoli Usmoniya. – Istanbul; 1870; Zurubi amsol va qo’lyozma Shi Leningrad bo’limi, № 1935.

⁶ Sulaymonqul Rojiy, Zarbulmasal qo’lyozma . O’zFA, G`ulom nomidagi Qo`qon adaboyot muzeyi, qo’lyozmalar fondi, Inn.№6. Bu haqida qarang: Dilbar Rahmatova, Posledovateli Muqimi (Pisandi, G`urbat, Radji): AKD.-T. : , 1967; E.Shodihev. Irsol-ul masal ruboiylar// o’zbek tili va adabiyoti. -1972.- № 5. – B. 17-19





ming xaroba qishloq desang ham topiladi...” deb javob qilayotgan ekan. Ayni shu mazmun boshqacharoq bir shaklda Nizomiydan ancha avval o`tgan Abu Bakr Muhammad Tartushiyning “Siroj-ul mulk” asarida ham tilga olingan. Rabg`uziy qissalari, Xoja hikoyatlari orasida ham yuqoridagi kabi epizodlarga duch kelamiz, lekin ularning har birida o`zgacha mazmun, o`zgacha yo`nalish bor. Aslida xalq og`zaki ijodida mavjud bo`lib, undan diniy – ta`limiy mazmundagi asarlarga ko`chgan bu sujetni Gulxaniy epik asar darajasida kengaytirib, unga chuqur ijtimoiy mazmun berdi, ko`p sonli personajlar kiritdi, voqeа yo`nalishini hayajonli dramatik qolipga soldi, shu voqeа negizida til, uslub, badiiyat nuqtai nazaridan tangi asar yaratdi. Eng muhimi – Gulxaniy Qushlarni zarbulmasal yo`li bilan so`zlatish orqali o`zbek tilidagi xalq ma’naviyati durlarini bir suujet ipiga bog`lab berdi.

“Zarbulmasal”ning tarkibiy qismlari. Asarning turlicha hikmat va hikoyatlardan tashkil topgan “yig`ma” hikoyat ko`rinishi bor. Adibning o`zi bu kitobda “to`rt yuz zarbulmasali avomunna batartib bayon qilingani” ni qayd etib o`tgan. Bu ma'lumotga asoslanib ba`zi kishilar “Zarbulmasal” da 400dan ortiq (yoki kam) maqol bor deb izoh beradilar. Aslida esa bu yerda maqol (“otalar so`zi”, “mashoyixlar gapi”, matal, ibora) nomi bilan umumlashadigan xalq aytimlari 200ga yaqin boradi xolos. “Zarbulmasal” masallari jumlasiga “maqol(matal, ibora)” dan tashqari, fikrning asosi va dalili sifatida keltirilgan har xil adabiy parchalar (hikmatlar), qissa va hikoyatlar, hadisu rivoyatlar, adabiy san’atlar, ifodaning , qissa va hikoyatlar, hadisu rivoyatlar, adabiy san’atlar, ifodaning badiiy tasvir vositalari, ba’zan, hatto, usul va shakllari ham qo’shilib ketadi. Ana shularning hammasi jamlanganda “Zarbulmasal” masallari 300ga yaqin boradi. Bular orasida mustaqil sujetga ega bo`lib, asarning bosh sujet yo`liga qoliplangan qissa va hikoyatlar ko`p. Ilmiy-tanqidiy matnni shakllantirish va asar qo`lyozmalarining butunlik darajasini belgilashda bu qissalarning asardagi o`rnini bilib olish katta ahamiyatga ega. Buning uchun bosh sujet chizig`ining muhim nuqtalariga e’tibor berish lozim bo`ladi.





Bu nuqtalarning har birida qanday dialoglar kelishi, bu dialoglarda qancha va qanday aytimlar borligi, asarning u yoki bu qo'lyozmasida ularning qaytartibda uchrashi – bularning hammasi hisobga olib boriladi. Voqeband adabiy parchalar (masal, qissa, hikoyat) larga kelsak, ular ajratib ko`rsatilgan nuqtalar – epizodlarning 4tasi (4,8,9, 10)dan o`rin olgan.

Xalq og`zaki ijodi namunalarida, yozma adabiy – tarixiy manbalar ichida Kayqubod oti joy nomi sifatida kam uchraydi. Bu nom Buxoro, Samarcand, Kashmir, Bog`dod singari faol qo`llanuvchi an'anaviy nomlardan emas. Shunga ko`ra, Gulxaniy aytgan bu nom tarixiy jihatdan realmi yo rivoyatmi, degan savol qo`yiladi. Bordi-yu real bo`lsa, uning o`rni Farg`ona iqlimining qaysi tomonida bo`lishi mumkin? Zarbulmasalning mazmuni, undagi ayrim lavhalarning tarixiy asoslarini kuzata borib, biz shunday xulosaga keldikki, asarda tilga olingan gaplarning hammasi o`z hayotiy zaminiga ega ekan, undagi biror narsa bejiz va beasos tilga olinmagan ekan.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Gulxaniy. Zarbulmasal. –T.: G`afur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti. 1974. 80b
2. Abdullayev B. A. O`zbek adabiyoti tarixi. Ikkinci kitob, ikkinchi nashri, -T. : O`qituvchi 1967. 383b
3. Aliyev A. Yu. O`zbek adabiy tili tarixidan materiallar. – T. : Toshkent Davlat Universiteti nashriyoti, 1986y 63 b
4. Ahmedov. B.A. O`zbekiston xalqlari tarixi manbalari (Qadimgi va o`rta asrlar). – T.: O`qituvchi, 1991. 163-212b
5. Zurubi amsoli Turkiya – Istanbul; 1893; Zurubi amsoli Usmoniya. – Istanbul; 1870; Zurubi amsol va qo`lyozma Sh Leningrad bo`limi, № 1935.

O`ZLASHTIRISHI QIYIN O`QUVCHILAR BILAN MUSTAQIL ISHLASH KO`NIKMASI

Qodirova Avera Raxmanovna





INNOVATION TA'LIM ISTIQBOLLARI



37	BOSHLANG'ICH SINFLARDA HAR XIL JANRDAGI ASAR MATNLARNI O'QITISH USULLARI VA METODIK TAVSIYALAR <i>To'rayeva Gulnora Mamanazarova</i>	121
38	BOSHLANG'ICH SINFLARDA BO'SH O'ZLASHTIRAYOTGAN O'QUVCHILAR BILAN O'QISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH <i>Nurtayeva Gulnoz Yusupovna</i>	124
39	TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH O'QITUVCHI QO'LLAYDIGAN METODLARGA BOG'LIQDIR <i>Jo'rabayeva Maxfuza</i>	127
40	SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSALARIDA ERTAKLARNI O'RGAATISH USULLARI VA AHAMIYATI <i>Raxmatullayeva Nilufar Komiljonovna</i>	130
41	BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SHART-SHAROITLARI <i>Saidova Gayhar Ergashovna, Qoryog'diyeva Aziza Shavkat qizi</i>	135
42	AYIRMANI TOPISHGA OID TARKIBLI MISOL VA MASALALAR YECHISH <i>Idiyeva Niginabonu</i>	138
43	BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI <i>Abdullahayeva Ozoda Abdujalil qizi</i>	143
44	KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH—HAR BIR FUQARONING BURCHI <i>Hoshimova Firuza</i>	146
45	BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSALARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN TO'G'RI VA SAMARALI FOYDALANISH <i>Mirzayeva Mastura</i>	148
46	TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PIRLS XALQARO TADQIQOTINING AHAMIYATI <i>Adashaliyeva Umidaxon</i>	152
47	BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI 1- SINFDANOQ HUSNIXAT BILAN YOZISHGA O'RGAATISHNING AHAMIYATI <i>Tursunova Ozodaxon</i>	156
48	BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIK MASALALARING YECHILISHIGA DOIR NAZARIYALAR <i>Qodirova Dilbar Aminboevna</i>	161
49	O'QISH DARSALARIDA INNOVATION METODLAR BILAN NATIJAGA ERISHISH <i>Shaymardanova Zilola Egamberdieva</i>	164
50	OSHIQONA G`AZALLARNING MUMTOZ NAVOLARI <i>Mirzaliyeva Nozima Muhammadaliyevna</i>	167
51	MUMTOZ SHE'RIYATDA RAMZIY OBRAZLARNING Xojayeva Onaxon Anvarovna	173
52	BUXORO TUMANI TOPONIMLARINING TASNIFI MASALASI <i>Adizova Nodira Toshpo'latova Dilsora</i>	176
53	QALB KO'ZING KO'R BO'LMASIN... <i>Umarova Gulxumor Saminjon qizi</i>	179
54	ADABIYOT FANIDAGI BA'ZI TAMOYILLAR <i>Mamajanova Durdonha Jamalxanovna</i>	182
55	FONETIK O'ZGARISHLAR <i>Dildora Abdurahmonova G'aybullayevna</i>	185
56	O'ZBEK ADABIY FANTASTIKASINING ASOSCHILARIDAN BIRI <i>Polvonova Lobar Fazlidinovna</i>	187
57	"ZARBULMASAL"DAGI BOSH SYUJET CHIZIG'I <i>Qodirova Saodat Abduraximovna, Askarova Dilchiroy Amin qizi</i>	190

